

YURTBOSHIMIZ XOTIRALARIGA

O'zbekiston bayrog'ini baland ushlab,

Gursullatib qadamlarni shaxdam tashlab.

Yurardingiz tinchlik so'zin olg'a boshlab,

Nahot tashlab ketdingizmi ko'zni yoslab?

Kulgu chaqnab turar edi ko'zingizdan,

Nurlar doim yog'ilardi yuzingizdan.

Har minbarda intiq edik so'zingizdan,

Nahot olloh ayirmishmi o'zingizdan?

Qayon ketdi ishongan bog', suyangan tog'?

Bu yo'qotish qalbda qoldi, mangu bir dog'.

Yurt otasi jannatlarga ketmish bu chog',

Sizdan qoldi ozod vatan, gullagan bog'.

Xalqim deya yashadingiz jon otajon,

Siz boshlagan yo'llar doim porloq, ravon.

Yosh avlodning ko'z yoshlari marjon-marjon,

Ayriliqdan dili vayron, O'zbekiston.

Qalqon bo'llib asragaymiz vatanni biz,

Siz aytgandek kuchli, dono farzandingiz.

Mustaqillik, ozodlik-chun ta'zimdamiz,

Qalbimizda abadiyat yashaysiz siz.

Sobit Ziyo,

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi